

OLIJ TA'LIMDA ISO STANDARTLARINI JORIY ETISH MUAMMOSINING ILMIY ADABIYOTLARDA, XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLARIDA YORITILISHI TAHLILI

Jurayeva Shoira G'afforjonovna

Nordik xalqaro universiteti Ta'lim menejmenti magistranti

Annottasiya: *Oliy ta'lim tizimida ISO standartlarini, xususan ISO 9001 hamda ta'lim tashkilotlari uchun maxsus ishlab chiqilgan ISO 21001 standartini joriy etish muammosi ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba va O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda avvalo sifat menejmenti tizimlari konsepsiyasining ta'lim sohasiga ko'chirilishi, ISO standartlarining oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi va ta'lim jarayoniga ta'siri, ularning afzalliklari va cheklovlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Xalqaro tajriba misolida universitetlarda ISO 9001 va ISO 21001 ni joriy etish modellari, jarayonlarga asoslangan boshqaruv, manfaatdor tomonlar bilan ishlash, ichki audit va doimiy takomillashtirish mexanizmlarining ta'lim sifati hamda universitetlarning xalqaro raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ISO 9001, ISO 21001, oliy ta'lim, sifat menejmenti tizimi, ta'lim sifati, xalqaro standartlar, akkreditatsiya, O'zbekiston me'yoriy-huquqiy hujjatlari, manfaatdor tomonlar, sifat madaniyati.*

Аннотация: *В статье рассматривается проблема внедрения стандартов ISO в систему высшего образования, в частности стандартов ISO 9001 и специализированного для образовательных организаций стандарта ISO 21001, на основе анализа научной литературы, международного опыта и нормативно-правовых актов Республики Узбекистан. В исследовании раскрываются теоретические основы переноса концепции систем менеджмента качества в сферу образования, влияния стандартов ISO на управление высшими учебными заведениями и образовательный процесс, их преимущества и ограничения. На материале международной практики проанализированы модели внедрения ISO 9001 и ISO 21001 в университетах, особенности процессного управления, взаимодействия с заинтересованными сторонами, функционирования внутренних аудитов и механизмов постоянного улучшения, а также их влияние на качество образования и международную конкурентоспособность вузов.*

Ключевые слова: *ISO 9001, ISO 21001, высшее образование, система менеджмента качества, качество образования, международные стандарты, аккредитация, нормативно-правовая база Узбекистана, заинтересованные стороны, культура качества.*

Abstract: *The article analyzes the problem of implementing ISO standards in higher education, with a particular focus on ISO 9001 and the education-specific standard ISO 21001, through the lens of scientific literature, international practice and the regulatory framework of the Republic of Uzbekistan. The study first explores the*

theoretical foundations of transferring the concept of quality management systems into the education sector, examining how ISO standards affect university governance and teaching-learning processes, as well as their main advantages and limitations. Using international experience as an empirical background, the paper reviews different models of implementing ISO 9001 and ISO 21001 in universities, including process-based management, stakeholder engagement, internal audits and continuous improvement mechanisms, and assesses their impact on educational quality and the global competitiveness of higher education institutions.

Keywords: *ISO 9001, ISO 21001, higher education, quality management system, quality of education, international standards, accreditation, regulatory framework of Uzbekistan, stakeholders, quality culture.*

Oliy ta'lim sifatini oshirish, uni xalqaro ta'lim bozorida raqobatbardosh qilish, bitiruvchilarning kompetensiyalarini global mehnat bozori talablariga moslashtirish bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda bosh maqsadga aylanib bormoqda. Ushbu maqsadga erishishda xalqaro standartlar, xususan ISO oilasiga mansub boshqaruv tizimi standartlari alohida o'rin tutadi. ISO 9001 sifat menejmenti tizimi standarti hamda ayniqsa ta'lim tashkilotlari uchun maxsus ishlab chiqilgan ISO 21001 "Educational Organizations Management System" standarti oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini tizimli asosda yo'lga qo'yish imkonini beradi. ISO 21001 talablari ta'lim tashkiloti, o'quvchi (talaba) va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish, o'qitish, o'qish va tadqiqot jarayonidagi kompetensiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ISO 9001 bilan uyg'unlashgan, lekin ta'lim sohasi o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda alohida boshqaruv tizimi sifatida ishlab chiqilgan. Ilmiy adabiyotlarda ISO standartlarini ta'lim tizimiga joriy etish masalasi,[1] avvalo, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida shakllangan sifat menejmenti falsafasining ta'limga ko'chirilishi, uning ijobiy va salbiy jihatlari, moslashtirish mexanizmlari nuqtayi nazaridan yoritiladi.

Xalqaro ilmiy manbalarda XX asr oxiri va XXI asr boshidan boshlab universitetlar uchun ISO 9001 standarti asosida sifat menejmenti tizimini joriy etish tajribalari tahlil qilingani, bu jarayonning dastlab ma'muriy-boshqaruv jarayonlarini tartibga solish, keyinchalik o'quv jarayonini ham standartlashtirishga qaratilgani ko'rsatiladi. Ayrim tadqiqotchilar ISO 9001 ning ta'limga tatbiqu natijasida universitetlarda jarayonlar shaffofligi, mas'uliyat taqsimoti, hujjatlashtirish madaniyati va ichki audit amaliyoti kuchayganini, ichki boshqaruvda "jarayonlarga asoslangan yondashuv" va PDCA (plan-do-check-act) siklining muntazam qo'llanila boshlaganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, boshqa mualliflar standartlashtirishning haddan tashqari kuchayishi akademik erkinlikni cheklashi, ijodkorlik va innovatsion tashabbuslarni byurokratik tartib-taomillar orasida yo'qotib qo'yish xavfi mavjudligini qayd etadi. ISO 9001 ta'lim muassasasida xizmat ko'rsatish sifati, talabalar va ish beruvchilar qoniqishini oshirsada, u o'quv mazmuni va pedagogik strategiyalarni bevosita belgilamaydi; shu sababli

ilmiy adabiyotlarda “sifat menejmenti tizimi” bilan “ta’lim sifatining mazmuniy komponentlari” o’rtasidagi nisbat va o’zaro ta’sir alohida muammo sifatida tahlil qilinadi. [1] So’nggi yillarda ISO 21001 standarti paydo bo’lishi bilan ilmiy izlanishlar fokusida ta’lim tashkiloti boshqaruv tizimini aynan o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan holda qurish masalasi turibdi. ISO 21001 talabalarining ehtiyojlari, o’qishdagi individual farqlar, maxsus ehtiyojli o’quvchilar, masofaviy o’qish, manfaatdor tomonlar bilan kommunikatsiyani tizimli boshqarishni talab etadi. Ilmiy maqolalarda ushbu standartning boshqa ta’lim sifatini ta’minlash tizimlari – masalan, Yevropa oliy ta’lim makonidagi “Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area” (ESG) bilan uyg’unligi, akkreditatsiya mexanizmlari bilan integratsiyasi, kredit-modul tizimi, raqamli ta’lim platformalari, talabalar baholash tizimlari bilan uzviy bog’liqligi muhokama qilinadi. ISO 21001 bo’yicha tadqiqotlar ko’pincha quyidagi yo’nalishlarga bo’linadi: ta’lim tashkilotlarida ISO 21001 ni joriy etish bo’yicha yo’l xaritalari; rahbariyat yetakchiligi va “sifat madaniyati”; talaba, o’qituvchi, ish beruvchi, mahalliy hamjamiyat va boshqa manfaatdor tomonlar bilan tizimli ishlash; ichki baholash (self-assessment) va tashqi baholash natijalarini taqqoslash; hamda ISO 21001 sertifikatining universitetlar reytingi va xalqaro brendingiga ta’siri.

Markaziy Osiyo, jumladan O’zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlarida esa, asosan, oliy ta’lim sifatini oshirish, ichki va tashqi sifat kafolati tizimini rivojlantirish, xalqaro standartlar va ilg’or amaliyotlar bilan uyg’unlashtirish masalalari yoritiladi.

O’zbekiston oliy ta’lim tizimida Ichki sifatni ta’minlash tizimini takomillashtirish, uni xalqaro tajriba va standartlarga moslashtirish zarurati haqida maqolalar va ilmiy hisobotlarda shuni ta’kidlashadiki, sifat kafolatining ko’p komponentli yondashuvi – akademik erkinlik, boshqaruvni demokratlashtirish, manfaatdor tomonlar ishtirokini kuchaytirish, reyting va akkreditatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda ISO kabi xalqaro boshqaruv standartlarini joriy etish ham talab etiladi.

Bunda texnik va iqtisodiy yo’nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida ichki sifat kafolatini xalqaro standartlar bilan uyg’unlashtirish orqali ularning xalqaro maydondagi nufuzi, talabalar va professor-o’qituvchilarni jalb etish imkoniyatlari, xalqaro hamkorlik loyihalarida ishtirok darajasini oshirish mumkinligi qayd etiladi. [3]

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilganda, O’zbekiston kontekstida ISO 9001 yoki ISO 21001 standartlarini aynan oliy ta’lim muassasalari boshqaruvi va ta’lim jarayoniga joriy etish muammosi asosan nazariy-metodik darajada yoritilayotgani, amaliy tajriba va empirik ma’lumotlarga asoslangan kompleks tadqiqotlar yetarli emasligi ko’rinadi.

Mavjud ishlarda ko’proq ISO standartlarining asosiy tamoyillari, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish bo’yicha umumiy tavsiyalar, standartlashtirishning ijobiy jihatlari tasvirlanadi, biroq struktural-funksional tahlil, ta’lim jarayonining psixologik-pedagogik xususiyatlari bilan ISO talablari o’rtasidagi moslik, standartlarni milliy

ta'lim an'analari va huquqiy maydon bilan uyg'unlashtirish mexanizmlari yetarlicha chuqur ishlab chiqilmagan.

Xalqaro tajribaga murojaat qilinganda, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi va boshqa mintaqalarda faoliyat yuritayotgan universitetlar, kollejlarda ISO 9001 va ISO 21001 ni joriy etish bo'yicha turli amaliy modellar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, ayrim universitetlar dastlab ma'muriy-boshqaruv bo'linmalari – kadrlar bo'limi, moliya-xo'jalik bo'limi, qabul komissiyasi, xalqaro aloqalar bo'limi faoliyatida ISO 9001 talablariga mos sifat menejmenti tizimini joriy etgan, keyinchalik esa akademik bo'limlar, fakultet va kafedralarga ham bosqichma-bosqich tatbiq etgan.

Boshqa ta'lim tashkilotlari esa birlamchi bosqichdan boshlab ISO 21001 ni tanlab, o'quv rejalari, baholash tizimi, talabalar bilan ishlash xizmatlari, masofaviy o'qitish platformalari boshqaruvini yagona ta'lim tashkiloti boshqaruv tizimi sifatida integratsiya qilgan. ISO 21001 ni joriy etish bo'yicha xalqaro auditorlar va konsalting kompaniyalarining tavsiyalarida boshqaruv jarayonlarida ishtirokchilarni keng jalb etish, ichki auditlarni muntazam o'tkazish, manfaatdor tomonlar qoniqishi indikatorlarini ishlab chiqish va muntazam monitoring qilish, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha doimiy takomillashtirish siklini ishlashga tushirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. [2] Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ISO standartlarini oliy ta'limga joriy etishda bir qancha muammolar yuzaga chiqadi.

Birinchidan, universitetning ilmiy-akademik xususiyati va erkinlik tamoyillari standartlashtirishning qat'iy talablari bilan ma'lum darajada ziddiyatga kirishishi mumkin. Ikkinchidan, yuqori hujjatlashtirish talablari o'qituvchilarning vaqtini ko'p olishi, byurokratik yuklamani oshirishi, agar bu jarayon samarali raqamlashtirilmasa, sifat o'rniga "qog'ozbozlik"ni kuchaytirishi mumkin. Uchinchidan, ISO sertifikati ba'zan imidj va marketing vositasi sifatida qabul qilinib, haqiqiy sifat madaniyati shakllanmasdan, faqat auditga tayyorlanishga yo'naltirilgan formal yondashuv yuzaga chiqishi ehtimoli mavjud. To'rtinchidan, ISO standartlari asosan boshqaruv jarayonlarini tartibga soladi, shu bois ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, talaba shaxsini rivojlantirish strategiyalari kabi masalalar alohida ichki normativ-huquqiy hujjatlar, metodik konsepsiyalar, akademik erkinlikni ta'minlovchi mexanizmlar bilan uyg'un holda hal etilishi lozim.

Endi O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlarida oliy ta'limda ISO standartlarini joriy etish muammosining yoritilishi va ularning mazmuniy tahliliga murojaat qilamiz. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha so'nggi yillarda qabul qilingan asosiy farmon va qarorlar – 2017–2023 yillar mobaynidagi prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va konseptual hujjatlar – ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishni strategik maqsad sifatida belgilab bergan. Masalan, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarorda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, unda ayniqsa oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning

ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan darajaga yetkazish zarurligi alohida qayd etilgan. [4] 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashga tayyorlash, ularning moddiy-texnika bazasi, ilmiy salohiyati, o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayonini kompetensiyaga asoslangan, innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish bilan birga, ta'lim sifatini xalqaro standartlar va talablar darajasiga yetkazish konseptual maqsad sifatida belgilandi. Konsepsiyada sifatni boshqarish tizimlarini rivojlantirish, sifatni baholashning milliy tizimini takomillashtirish, xalqaro akkreditatsiya va reyting mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatilgan. [5] Bu normativ-huquqiy hujjatlarda ISO 9001 yoki ISO 21001 standartlari nomi bevosita ko'p hollarda tilga olinmasa-da, "xalqaro standartlar", "xalqaro talablarga mos oliy ta'lim tizimi", "sifatni boshqarishning zamonaviy tizimlari" kabi iboralar, shuningdek, sifatni ichki va tashqi baholash, akkreditatsiya, reytinglar, xalqaro ta'lim makoniga integratsiya kabi yo'nalishlar aynan ISO kabi boshqaruv standartlarini joriy etish uchun huquqiy va strategik asos yaratadi. Yana bir muhim yo'nalish sifatida O'zbekistonda ta'lim sifatini tashqi baholash va akkreditatsiya tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni qayd etish mumkin. Masalan, mustaqil Akkreditatsiya va reyting xalqaro agentligi (ARIA) hamda boshqa milliy va xalqaro akkreditatsiya agentliklari faoliyatida sifat kafolatining xalqaro standartlar va mezonlariga mos yondashuvlar qo'llanilmoqda; ular ta'lim tashkilotlari boshqaruv tizimida manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini hisobga olish, ichki sifat tizimini muntazam takomillashtirish, o'quv natijalarini aniqlash va baholash mexanizmlarini rivojlantirish kabi ISO 9001 va ISO 21001 tamoyillariga yaqin yondashuvlarni talab qiladi. [4] O'zbekiston Respublikasi hukumatining boshqa sohalarda ISO 9001:2015 standartini joriy etish bo'yicha qaror va tashabbuslari ham bevosita oliy ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat boshqaruvi organlari, vazirlik va idoralarda ISO 9001 bo'yicha sifat menejmenti tizimi joriy qilinishi natijasida davlat xizmatlari ko'rsatish, hujjat aylanishi, qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflik, samaradorlik, xodimlar malakasini oshirish, doimiy takomillashtirish tamoyillari kuchaymoqda. Bu esa oliy ta'lim vazirligi, uning tizimidagi vazirlik va idoralar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari uchun ham o'z faoliyatini ISO menejment tizimlariga moslashtirish zaruratini kuchaytiradi. [5] So'nggi yillarda ayrim oliy ta'lim muassasalarining amaliy faoliyatida ham ISO 9001 va ISO 21001 standartlarini joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar kuzatilmoqda. Masalan, yirik pedagogik universitetlardan birida ISO 9001 va ISO 21001 xalqaro standartlari bo'yicha maxsus seminarlar o'tkazilib, bu standartlarning mohiyati, ta'lim tashkilotlari uchun ahamiyati, ularni joriy etish bosqichlari, audit talab va mezonlari, kutiladigan natijalar bo'yicha professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlar uchun axborot-maslahat ishlari olib borilgani haqida ma'lumotlar mavjud. Bunday tadbirlar hozircha ko'proq tushuntirish va

targ'ibot xarakteriga ega bo'lsa-da, ular kelajakda oliy ta'lim muassasalarida ISO standartlariga asoslangan sifat menejmenti tizimlarini kengroq joriy etish uchun zarur kadrlar va institutsional tayyorgarlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va amaliy tajribani tahlil etganda, oliy ta'limda ISO standartlarini joriy etish muammosi bir qator tizimli muammolar bilan ham bog'liq ekani ko'rinadi. Birinchidan, oliy ta'lim muassasalari uchun ISO 9001 va ISO 21001 ni joriy etish bo'yicha yagona milliy metodik tavsiyalar, yo'riqnomalar, namunaviy reglamentlar to'liq ishlab chiqilmagan. Natijada, har bir oliy o'quv yurti mazkur standartlarni joriy etish bo'yicha o'z strategik qarashlariga ko'ra, turlicha yondashuvlarni tanlaydi. Bu esa tizim bo'yicha bir xillik, taqqoslanish, umumiy natijalarni baholash imkoniyatlarini cheklaydi. Ikkinchidan, ISO menejment tizimlari bo'yicha malakali mutaxassislar, ichki auditorlar, sifat menejmenti bo'yicha ekspertlar yetishmovchiligi seziladi; mavjud xodimlarning asosiy e'tibori ilmiy-pedagogik faoliyatga qaratilgan bo'lib, qo'shimcha sifat menejmenti vazifalari ko'pincha yuklama sifatida qabul qilinadi. Uchinchidan, moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda ISO standartlarini joriy etish, sertifikatliyadan o'tish, tashqi audit xizmatlari uchun zarur mablag'larni topish ham muhim muammo bo'lishi mumkin. To'rtinchidan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida mavjud bo'lgan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari, attestatsiya va akkreditatsiya mexanizmlari tarixan yuqoridan pastga boshqaruv va tartibga solish modeliga tayanib shakllangan. ISO esa ko'proq tashkilot ichki jarayonlarining o'zini-o'zi boshqarish, ichki audit, manfaatdor tomonlar bilan muloqot, doimiy takomillashtirish madaniyatini talab qiladi. Shu jihatdan ISO standartlarini joriy etish davlat boshqaruv modeli, universitetlar avtonomiyasi, ichki akademik erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni qayta ko'rib chiqishni, boshqaruvni markazlashtirishdan bosqichma-bosqich differensiallash va desentralizatsiyalash tomon yo'naltirishni taqozo etadi. Beshinchidan, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotlarda ISO standartlarining "texnik" talablariga, hujjatlashtirish va audit jarayonlariga ko'proq e'tibor qaratiladi, biroq standartlarning psixologik-pedagogik mazmuni, ta'lim jarayonidagi interaktivlik, shaxsga yo'naltirilganlik, ijodiy muhit, talabalar subyektligi, o'qituvchi-talaba hamkorligi kabi parametrlarga ta'siri yetarlicha chuqur tahlil qilinmaydi. Aslida esa ISO 21001 aynan o'quvchi (talaba) va boshqa manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini aniqlash, ularni qondirish darajasini baholash, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish, maxsus ehtiyojli talabalarga moslashtirilgan ta'lim xizmatlarini tashkil etish kabi pedagogik jihatdan nihoyatda muhim talablarni o'z ichiga oladi. Shu bois O'zbekiston oliy ta'lim tizimi kontekstida ISO standartlarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar faqat boshqaruv va hujjatlashtirish texnikasi bilan cheklanmasdan, akademik jarayonning ichki mazmuniy transformatsiyasini ham qamrab olishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarida ISO standartlarini joriy etish bo'yicha xalqaro va milliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun bir nechta shart-sharoitlar muhim. Birinchidan, oliy ta'lim muassasasi rahbariyati

darajasida ISO menejment tizimiga nisbatan strategik yondashuv shakllanishi, ushbu tizimni faqat sertifikat yoki tashqi imidj vositasi sifatida emas, balki ta'lim tashkilotining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, sifat madaniyati, tashkiliy o'rganish va innovatsion rivojlanish instrumenti sifatida qabul qilinishi zarur. Ikkinchidan, professor-o'qituvchilar va yordamchi xodimlar, boshqaruv apparati vakillari ISO tamoyillarini o'z kasbiy kompetensiyalarining ajralmas qismi sifatida o'zlashtirishi, bevosita jarayonlar egalari sifatida sifat menejmenti faoliyatida faol ishtirok etishi kerak. Uchinchidan, talabalar va ish beruvchilar, bitiruvchilar, mahalliy hamjamiyat, hamkor tashkilotlar kabi manfaatdor tomonlar ISO tizimida faol subyektga aylanishi, ularning fikr-mulohazalari, taklif va shikoyatlari tizimli yig'ilib, tahlil qilinishi, qaror qabul qilishda inobatga olinishi talab etiladi. To'rtinchidan, axborot-raqamli infratuzilma rivojlangan bo'lishi, jarayonlarni hujjatlashtirish va monitoring qilish, sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish raqamli platformalar orqali amalga oshirilishi, bu esa byurokratik yukni kamaytirib, sifat menejmentini real vaqt rejimida samarali boshqarishga imkon berishi kerak. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha so'nggi yillardagi islohotlar – oliy ta'lim muassasalari sonining keskin oshishi, davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarining paydo bo'lishi, xalqaro universitetlar filiallari faoliyati, kredit-modul tizimining joriy etilishi, laboratoriya va ilmiy markazlarning modernizatsiyasi, xalqaro grant va loyihalarning kengayishi – ISO standartlarini joriy etish uchun ham yangi ehtiyoj va imkoniyatlar yaratmoqda. Xususi oliy ta'lim tashkilotlari bozor sharoitida raqobatbardosh bo'lish uchun ISO sertifikatlariga ko'proq qiziqish bildirishlari, talabalarga "sifat kafolati"ni marketing vositasi sifatida taklif qilishga intilishlari kuzatilmoqda. Bu jarayon esa umumiy milliy sifat infratuzilmasi – standartlashtirish, akkreditatsiya, sertifikatsiya, reyting, monitoring, diagnostika kabi tizimlarning bir-biri bilan uzviy integratsiyasini talab qiladi. [6] Umumlashtirib aytganda, oliy ta'limda ISO standartlarini joriy etish muammosining ilmiy adabiyotlarda, xalqaro tajriba va O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlarida yoritilishi ko'p qatlamli va kompleks xarakterga ega. Ilmiy manbalarda ISO 9001 va ISO 21001 standartlarining nazariy asoslari, tamoyillari, afzalliklari va cheklovlari, ta'lim tashkilotlari boshqaruviga tatbiq qilish mexanizmlari, sifat madaniyati, manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar, ichki va tashqi baholash tizimlari, raqamli transformatsiya bilan integratsiyasi yoritilgan. Xalqaro tajribada ISO standartlarini oliy ta'limga joriy etishning turli modellarini ko'rish mumkin bo'lib, ulardan O'zbekiston sharoitiga mos keladigan jihatlarni tanlab olish, mahalliy kontekstga moslashtirish, milliy huquqiy maydon, ta'lim an'analari, til va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda adaptatsiya qilish zarur. O'zbekiston me'yoriy-huquqiy hujjatlarida ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish strategiyasi, sifatni baholash va boshqarishning milliy tizimini modernizatsiya qilish vazifalari, oliy ta'limning xalqaro reyting va akkreditatsiya jarayonlarida faol ishtiroki kabi yo'nalishlar belgilangan bo'lib, ular ISO standartlarini joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi, lekin bu jarayonni batafsil reglamentlash, metodik ta'minotini ishlab chiqish,

kadrlar salohiyatini oshirish, moliyaviy va tashkiliy infratuzilmani rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar bilan mustahkamlash talab etiladi.

Kelgusida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ISO standartlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlar quyidagi yo'nalishlarda chuqurlashtirilishi maqsadga muvofiq: ISO 21001 talablari asosida oliy ta'lim muassasasining integrallashgan boshqaruv modeli va uning komponentlarini ishlab chiqish; talabalarning o'qish motivatsiyasi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari, o'qitishning interaktiv va raqamli texnologiyalari, akademik halollik madaniyati, inklyuziv ta'lim, talabalar psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi kabi pedagogik jarayonlar bilan ISO talablari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni empirik o'rganish; ISO standartlari bo'yicha ichki auditorlar va sifat menejmenti mutaxassislarini tayyorlashning pedagogik va andragogik modellari; sifat ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish, ularni raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida monitoring qilish, bashoratlash va qaror qabul qilish mexanizmlari; xalqaro akkreditatsiya va reyting talablari bilan ISO 21001 va ISO 9001 standartlari o'rtasidagi uyg'unlikni tahlil qilish, milliy akkreditatsiya mezonlariga integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqish. Shuningdek, normativ-huquqiy bazada ISO standartlarini ta'lim sohasiga tatbiq qilishni qo'llab-quvvatlovchi aniq bandlar, yo'l xaritalari, moliyaviy va tashkiliy rag'batlantirish mexanizmlarini belgilash, oliy ta'lim muassasalarining bunday tashabbuslarini grantlar, loyihalar, soliq imtiyozlari, xalqaro hamkorlik dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash amaliyotini kengaytirish lozim. Shu tariqa, oliy ta'limda ISO standartlarini joriy etish muammosi nafaqat texnik yoki tashkiliy masala, balki keng ma'noda ilmiy-nazariy, pedagogik, psixologik, sotsiologik va huquqiy aspektlarni o'z ichiga olgan murakkab tadqiqot maydoni ekanini ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. ISO 21001:2018. Educational organizations — Management systems for educational organizations — Requirements with guidance for use. Geneva: International Organization for Standardization, 2018.
2. ISO 9001:2015. Quality management systems — Requirements. Geneva: International Organization for Standardization, 2015.
3. Kasperavičiūtė R. Approach of higher education institutions to ISO 9001 Standard: reasons, issues and benefits of implementation // Public Policy and Administration. 2012. Vol. 11, № 4. P. 672–689.
4. Papadimitriou A., Westerheijden D. F. Adoption of ISO-oriented quality management system in Greek universities: reactions to isomorphic pressures // The TQM Journal. 2010. Vol. 22, № 3. P. 229–241.
5. Elov O., Ergasheva M. Application of ISO 9001 standard in education // Академические исследования в современной науке (Academic Research in Modern Science). 2025. Vol. 4, № 1. P. 130–136.

6. Hamdamov Y. M. o'g'li. Improving the quality of education by implementing the ISO 9001 quality management system in technical higher education institutions // International Journal of Pedagogics. 2025. Vol. 5, № 2. P. 39–41.

7. Elov O. Educational quality management system in the scientific literature // Journal of Academic and Applied Studies. 2023.

8. Methodological basis of the quality management system in education // International Journal of Advanced Scientific Research. 2023.

9. Arjona-Granados M. del P. va boshq. Quality management systems and educational quality: analysis in higher education institutions // Retos. 2022.

10. Krymets L. V. Developing the methodology on the basis of total quality management in higher education // Review of Education. 2022.